

ONA TILI VA O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH AFZALLIGI

Prmatova Orzigul Elmurodovna

boshlang`ich sinf o`qituvchisi Romitan tumanidagi 14-maktab

Annotatsiya Maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining og`zaki va yozma nutqini o`stirishga bag`ishlangan uslubiy tavsiyalar bayon qilingan. Shuningdek Muallif, o`quvchilarning og`zaki nutqlarni o`stirishda adabiy tilning o`ziga xos mezonlariga rioya qilish kerakliga o`yinlar orqali ko`rsatib o`tgan

В данной статье изложены методические рекомендации по развитию устной речи учащихся начальных классов на уроках чтения. Автор раскрывает способы и приемы развития устной речи у обучаемых посредством выполнения специфических аспектов литературного языка.

The article sets out guidelines for the development of oral speech of primary school students in reading lessons. The author explains how to develop children`s spiritual cjncepts through studying the words of the great ancestors.

Ta`lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylangach, boshlang`ich ta`lim rivojiga alohida e`tabor qaratildi. Darsliklarning yangi avlodlari qiziqarli ixcham qilib yaratildi. Maktabimiz kelajagi bugun maktablarda ta`lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo`lib yetishishlariga bog`liq. Shunday ekan bu ma`suliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o`qituvchisi, ayniqsa boshlang`ich sinflarda ta`lim beradigan o`z kasbini sevadigan, ilg`or pedagogik texnologiyalar metodlarni to`liq anglab uni o`z darslarida foydalanishdan iboratdir. Bugun ta`lim jarayonida ilg`or pedagogik texnologiyalarni faol qo`llash ta`lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotda joriy etish

bugungi kunning muhim vazifalardan biridir. O`qituvchi darsda boshqaruvchi, o`quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog`i lozim. Boshlang`ich sinflarda ko`proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o`yin mashqlardan foydalanib darslar o`tish yaxshi samara beradi. Darslarda ko`proq atrof- muhit bilan o`tilgan darslar bolalar ongini, dunyo qarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko`nikmasini rivojlantiradi. Bizga ma`lumki, so`zlashuv til nutq o`stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib u asta-sekin takomillashib boradi hamda o`qigan matnlarni og`zaki hikoya qilishda namoyon bo`ladi. O`quvchilarni so`zlashuvga o`rgatish dars jarayonida amalga oshiriladi. O`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini me`yorlashda, adabiy tilning ohangdorlik ya`ni ravon o`qishning amaliy ahamiyatini o`stirish, adabiy til me`yori va mezonlariga rioya qilish, o`qish metodlarini shakllantirish takomillashtirish yo`llarini izlash va eng qulayini amaliyotga tadbiiq qilish zarur. Shuning uchun men darslarimda “ Intensib mashqlardan ko`proq foydalanaman.

Usul: Yarim ovov bilan (boshlovchiga taqlid qilib o`qish)

Usul: Matndan nigohingni olib o`qish.

Usul: Tezlashib o`qish.

Usul: Juftlikda o`qish.

Usul: Tez aytish tempida o`qish.

Tez aytishga o`xshatib bir nafasda o`qish, chuqur nafas olib.

Usul: Pichirlab o`qish.

Usul: Qo`l orqaga faqat ko`z bilan ichingda o`qi.

Usul: Tez o`qish usuli.

Usul: Baland tovushda o`qish.

Usul: Jonli tasvirlash.

Ikkita partadosh o`qiydi, biri turib imo bilan ko`rsatadi.

Usul: To`xtab o`qi usuli.

Ertakni yarmi o`qish beriladi qolgani o`quvchilarga o`qish uchun topshiriladi.

Usul: Gapdagi so`zlarni ketma-ket o`qiydi. So`ng teskarisini o`qiydi.

Masalan: Aziza kitob o`qidi.

O`qidi kitob Aziza.

13-Usul: Tanlab o`qi usuli.

10%---o`qiganiganimizni

20%---eshitganimizni

30%---ko`ganimizni

50%---ko`ganimiz va eshitganimizni

70%---muhokama qilganimizni

80%---his qilganimizni

95%---boshqalarga o`rgatganimizni

O`quvchilarga matndagi xohlagan qismni o`zlari tanlab o`qishlari aytiladi.

O`quvchilarning og`zaki va yozma nutqlarni me`yorlashda ana shu usullar juda qulay amalyotga tatbiq qilsa bo`ladi. Buning uchun bolalarning yoshligidan nutq madaniyatini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim. O`quvchilarning ruhiy, fiziologik xususiyatlarga yetarli ahamiyat berib ularga nisbatan e`taborni kuchaytirish, mehri va shirinsuxan bo`lish zarur. Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg`ularga boy bo`lib, o`qituvchi ana shu tug`yularni ilg`ashi, uning ruhiyatini ko`tarish, ta`lim jarayonida insonparvarlik tamoyiliga alohida e`tabor berish zarur. O`qish bo`limida bolalarning eshitish uquvlarini tarbiyalash tez, sekin, qattiq, har xil ohangdagi gaplarni eshitib idrok etish talab qilinadi. Talaffuzning sofliğini ta`minlashda bolalarning o`z fikr taassurotlarni ifodalashlari uchun savol, javobga ko`proq o`rin beriladi. His tuyg`uli nutq, fikr ta`sirli ifoda etish, o`qish, o`qish paytidagi nutq, ertak aytib berishdagi ohang va nutq, hazil-mutoyibadagi nutq uyg`unlashishi o`quvchilarga zavq-shavq bag`ishlaydi. O`quvchilarni yakka holda gapirishga o`rgatish kerak bu uchun rasmlar

vositasida soʻzlash, koʻrgan eshitganini tartib bilan ifoda etish lozim. Nutqni oʻstirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlari bogʻliq holda uzviy rivojlanadi. Bolalarni faollikka oʻrgatish uchun maʼnodosh, qofiyadosh soʻzlarni toppish oʻyinlarini tashkil etish, bunday soʻzlarni nutqda oʻrin qoʻllashni, gap tuzishda esa soʻzlar orasidagi bogʻlanishga mos turli oʻxshatishlar topish kabi ishlar doimiy ravishda oʻtkazilishi lozim. Hikoya ertakni soʻzlab berishda qahramonlar ovozigʻa taqlid qila olish, ular tovushini ajrata olish rasm va narsalarni taqqoslash tasvirlash, sayr-tomosha oʻyin mehnat haqida hikoya qilish misollar keltirish. Sobirjon fermer matni kabi matnlar orqali matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosa chiqarish badiiy matn ustida ishlashga oʻrgatish: matnni qismlarga boʻlishni, reja tuzishni, ular mazmuniga mos sarlavha toppish: ijodiy rasmlar chizish kabi jarayonlarda bolalar tafakkur qilishga oʻrganadilar. Bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashda ogʻzaki nutq namunalardan inter faol oʻyinlardan foydalanish, ularga taqlid qilish yool olishga eʼtibor berish mashqlarini oʻtkazishni tavsiya etaman rasm P. Safarova bilan uchrashuv. Men oʻz darslarimni Xitoy xalq maqoliga amal qilib oʻtishga harakat qilaman.

Agar sen kishining bir kun toʻq boʻlishini istasang, unga baliq ber.

Agar sen kishining har kuni toʻq boʻlishini istasang, unga qarmoq berib baliq tutishni oʻrgat.(Xitoy xalq maqoli) Shunday ekan men oʻz tajribamda qoʻllagan va yaxshi natija erishgan interfaol metod va oʻyilardan namunalar keltirmoqchiman „Interfaol” soʻzi inglizcha „Interact” soʻzidan olingan („inter”-birgalikda oʻzaro „act” harakat qilish) Interfaol metodlar oʻzaro harakat oʻquvchilarning faolligi, guruh tajribasiga tayanish, qayta bogʻlanish namoyillariga asoslanadi. „Doʻstigma xat” mashqi. Bu mashq ona tili, oʻqish savodxonligi darsda xat yozish mashqini mustahkamlashda, birgalikda ishlash koʻnikmalarini shakllantiradi. Bu mashq juftlikda bajariladi. Ikkita partadoshga A4 qogʻozining $\frac{1}{4}$ qismi beriladi. Boʻlim yuzasidan, yoki mavzuga mos savol

tuziladi. Savol yozilgan qogʻozni boshqa partadoshga beriladi. Bu oʻyinda oʻquvchilar juftlikda ishlashadi. Oʻzaro savol-javob oʻtkaziladi.

„Quvnoq harflar“

Bu oʻyinni oʻtkazish uchun sheʼr avval 3-4 marta oʻqiladi. Sheʼrdagi soʻzlar bosh harfi doskaga yoziladi. Shu tariqa sheʼr yod olinadi. Masalan ;Mahallamiz jarchisi; sheʼrini tez yod olish uchun

Shoxda, shaqillar Hakka

Mehmon kelyapti aka

Sh Sh H

M K A

Tez pishiring palovni

T P P

Burab qoʻying moʻylovni

B Q M

„Tezkor savollar“ oʻyini

Bu oʻyin har darsni oxirida mustahkamlashda ishlatsa juda foydali. Chunki bola darsni yaxshi oʻzlashtiradi, tezkor, chaqqon, hushyor boʻladi.

Masalan, „Shippak hikoyasi“ misolida koʻrib chiqamiz.

1. Matn nima uchun Shippak deb nomlangan?

2. Matn bosh qahramoni kim?

3. Firdavs qanday bola?

4. Oilasida necha kishi bor?

5. Malika unga kim boʻladi?

Muzyorar oʻyini

Bu oʻyin orqali oʻquvchilar hikoyani qayta hikoyalab beradilar. Matn nomi beriladi. Masalan „Chumolining jasorati

Oʻqituvchi- Qadim

1-oʻquvchi-Qadim zamonda

2-oʻquvchi-Qadim zamonda bir

3-o`quvchi Qadim zamonda bir katta

4-o`quvchi- Qadim zamonda bir katta o`rmon... o`yin shu tarzda davom etadi

Mozaika

Bu o`yinda o`quvchilar 4 kishilik kichik guruhga bo`linadi. O`qituvchi “Kuz” manzarasi tasvirlangan rasmi konvertlarni tarqatadi. O`quvchilar Mozaika usulda usulda ularni yig`adilar. Bunda o`quvchilar chaqqon, e`tiborli, matn tuzishga, tabiatni kuzatish malakalari shakllanadi.

“Qofiyadoshni top” o`yini

Bu o`yinda so`zlar qog`ozga yozib o`quvchilarga beriladi. Ular qofiyadoshini topadi.

Masalan: boy-poy, hoy-soy, joy-toy, boy-loy, moy-choy.

“Ma`nodoshni top” o`yini

Bu o`yindan o`quvchilar lug`at boyligi oshadi.

Masalan: Vatan, qo`rg`on, diyor, o`lka, maskan

“Mayiz” o`yini

Bu o`yinda o`quvchilarga mayiz tarqatiladi. Bu nima ekanligi, uni foydali tomoni so`raladi. O`quvchilar nechta mayiz olishsa, shuncha matndan fikr aytadilar. Bu o`yinni dars yakunida mustahkamlash qismida o`tkazsa bo`ladi. Masalan: “Sobirjon fermer” matni misolida ko`ramiz.

Sobirjon tirishqoq

Sobirjon mehnatsevar

Sobirjon tadbirkor

Sobirjonni tovuq va jo`jalari bor


Sobirjon olgan pullarni ham taminlanganlarga tarqatadi.

Tarmoqlash (Klaster)

Metodi

Mazkur metod turli xil g`oyalar orasidagi aloqalar, fikrlash imkoniyatini beruvchi tizilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obyektga

yo`naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog`liq ravishda amalga oshiradi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta`lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o`zlashtirilgunga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo`lishini ta`minlashga xizmat qiladi.



Xulosa qilib aytganda o`quvchilarni amaliy mashqlar, kundalik turmush tarsi misolida, ibratli ishlarga taqlid etishga, ulardan o`rnak olishga, ular kabi bo`lishga o`rgatish maqsadga muvofiq bo`ladi. O`quvchilarning xulqini shakllantirish va irodasini tarbiyalashda hayotiy misollar keltirib ta`sir ko`rsatish, ularni hayajonlantirish yoki quvontirish orqali o`z xatti-harakatlarini to`g`risida fikrlashga undash samarali natijalarni beradi.

“Stakanlar o`yini”

Bu o`yindan ona tili va o`qish savodxonligida, matematika darslarida va to`garak mashg`ulotlarida qo`llanilsa bo`ladi. Masalan: matematika darsida qo`llanmoqchi bo`lsa 10 ta raqam stakan ostida yoziladi. Har bir o`quvchini partasi ustiga qo`yiladi. Bundan o`quvchilar raqamlarni tanishda sonlarni hosil qilishda ikki xonali, uch xonali sonlarni hosil qilishda og`zaki qo`shish va ayirish natijalarini hosil qilishda ishlatiladi. Bu o`yinlardan o`quvchilar shu son va raqamlarni ko`rib o`z qo`llari bilan hosil qiladi. Alifbo davrida esa so`z bo`g`in hosil qiladi. O`quvchilar bu o`yinlarni juda qiziqib o`ynashadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar :

1. Ilg`or pedagogik metodik qo`llanma
- 2.Safarova.R. 1-sinfda o`quv-metodik qo`llanma
- 3.O`z ish tajribamdan